

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BABAYAROV MAXMUD XAMITOVICH

**O‘ZBEK TILIDA «SPORT» SEMANTIK MAYDONI:
FUNKTSIONAL VA STILISTIK TAHLIL MUAMMOLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим наукам
Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences

Babayarov Maxmud Xamitovich

O‘zbek tilida «sport» semantik maydoni: funktsional va stilistik tahlil
muammolari3

Бабаяров Махмуд Хамитович

Семантическое поле «спорта» в узбекском языке: проблемы функционально-
стилистического анализа.....37

Babayarov Makhmud Khamitovich

Semantic field of «sport» in uzbeki: problems of functional and stylistic
analysis.....73

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....78

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BABAYAROV MAXMUD XAMITOVICH

**O‘ZBEK TILIDA «SPORT» SEMANTIK MAYDONI:
FUNKTSIONAL VA STILISTIK TAHLIL MUAMMOLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.DSc/Fil847 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muhammedova Saodat Xudoyberdievna
filologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Xo'jamurod
filologiya fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ibrohim
filologiya fanlari doktori, professor

Etakchi ilmiy tashkilot:

Jizzax davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 29-yanvar soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (820-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 14-yanvarda tarqatildi.

(2026-yil 14-yanvardagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'.Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

M.K.Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi paytlarda terminologik birliklarning sotsiolingvistik, kommunikativ-lisoniy, lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sport terminologiyasining boyish manbalari va usullari, soha lug'at fondidagi leksik birliklarning semantik-stilistik taraqqiyoti izchil tadqiq etilmoqda. Shu ma'noda sport kontseptosferasiga mansub terminologiyaning lisoniy xususiyatlarini lingvostilistik parametrlarda o'rganish, ularning nutqda determinlashuv va polisemantizatsiyalashuv jarayonlarini tahlil qilish masalalari ilmiy-amaliy mazmun kasb etadi.

Jahon tilshunosligida terminosfera maydonida sport terminlarining noqardosh tillar tizimida qo'llanilishining morfologik, struktural-semantik, lingvostilistik, leksikografik xususiyatini asoslash, sportga oid lingvomadaniy birliklarning kommunikativ-kognitiv, gender, etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish kun sayin ommalashmoqda. Dunyoda inson salomatligi uchun g'amxo'rlik qilish, buning uchun, birinchi navbatda, jismoniy tarbiya va sport madaniyatini yuksaltirish har bir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, sport terminlari, muloqot jarayonidagi o'ziga xosliklarini semantik-stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Barkamol va sog'lom avlod tarbiyasida, jahon sport arenalarida Vatanimiz sportchilarining son jihatdan ko'payib borishi va shuhrat qozonishida, o'zbek milliy sportining jahonga tanilishida tafakkur quroli bo'lgan ona tilimizni chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib bormoqda. Bu ehtiyojga bog'liq tarzda o'zbek tilida amalda bo'lgan, shuningdek chet tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan sportga oid terminlarni, so'z va iboralarni muayyan tartibga solish, ularning mazmun-mohiyatini anglash darajasiga keltirish maqsadida lingvistik tadqiqotlar olib borishning har qachongidan ham muhimligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning: "...Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda xalqaro maydonda O'zbekiston sporti va sportchilarimiz manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur", degan fikrlari esa mazkur tadqiqot uchun metodologik asos vazifasini o'taydi¹. Zero, jahon sport arenalarida yangrayotgan *kurash, halol, ta'zim, to'xta, chala, o'nbosh, vaqt, durang, elka, bekor* singari o'zbekcha so'zlar nafaqat milliy sport turlarining, balki milliy sport leksemalarining ham jahonda ommalashishi uchun bor kuch va g'ayratimizni safarbar etishni taqozo etadi. Shu ma'noda "sport" semantik maydoni doirasida olib boriladigan lingvistik tadqiqotlar yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida hayotiy zaruratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni

to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2019-yil 13-fevraldagi "2019-2023-yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Jahon tilshunosligida terminologiyaning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda terminologiya talqini, "termin" tushunchasi izohi va terminosferasi maydonida sport terminlari, ularning shakl va mazmun chegaralari kabi masalalar bo'yicha jahonning etakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida, xususan, Brown University, University of Quebec (AQSH), Berlin Universität, Goethe Universität, Göttingen Universität (Germaniya), University of Alberta (Kanada), University of Sambrige, University of Oxford (Angliya), Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Dilçilik İnstitutu (Ozarbayjon), Hasettepe Üniversitesi, İstanbul Üniversitesi (Turkiya), Moskva davlat lingvistika universiteti (Rossiya), shuningdek, Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi (Tojikiston), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va fol'klori instituti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti tilshunoslik kafedralarida ham sport terminlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bu kuzatishlarda sport terminologiyasi muammolarini, o'zbek tilidagi sportga oid leksik va frazeologik birliklarni yangicha yondashuvlar asosida o'rganish, shuningdek, sport terminlarining shakl va mazmun yaxlitligi masalalari diqqat-e'tiborda bo'lgan (University of Sambrige, University of Oxford, Angliya; Göttingen Universität, Germaniya); tojik lingvomadaniyatida sport terminologiyasi, tojik va ingliz tillaridagi sport atamaları lingvokognitiv aspektida o'rganilgan (Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi, Tojikiston); sport terminologiyasi, terminologiyaga oid nazariy qarashlar va qonuniyatlari, til tizimidagi nomutanosiblikning o'rni belgilangan (Moskva davlat lingvistika

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.dissercat.com, www.colostate.edu, www.usyd.edu.au, www.berkeley.edu, www.academia.edu, www.udsu.ru, www.bsu.ru, www.philol.msu.ru, www.myfilology.ru, www.libguides.usc.edu, www.diva-portal.org, www.cam.ac.uk, uspu.ru/, www.herzen.spb.ru, <https://linguanet.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi

universiteti, Rossiya); sport terminlarini va leksik birliklarini tizimlashtirish hamda tartibga solish, sportga oid ko‘pqatlamli leksemalarni maqbullashtirish, to‘g‘ri tarjima qilish, tartibga solish kabi ilmiy masalalarga munosib echim belgilanib berilgan (Brown University, University of Quebec, AQSh; Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya; University of Alberta, Kanada); sport kontseptosferasiga mansub terminologiyani lisoniy/g‘ayrilisoniy tafakkur doirasida chog‘ishtirish, terminlarning ijtimoiy shartlanganlik belgisi isbotlangan (Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının İmadəddin Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu (Ozarbayjon), xalqimizning ma‘naviy qadriyatini ifodalovchi o‘zbek tili sport terminlarining lisoniy xususiyatlari tarixiy negizlarini ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda ingliz, rus, frantsuz tili bilan chog‘ishtirma tadqiq qilishga alohida e‘tibor berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va fol’klori instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti; O‘zbekiston).

Shuningdek, sport terminlari shakl va mazmun chegaralarining funktsional dinamizmi, polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlari doirasida terminlarning mantiqiy-kontseptual qiymatini hamda innovatsion taraqqiyoti istiqbollari belgilash uchun nazariy fikrlarni asoslash; jismoniy tarbiya va sportga oid terminologik tizimni lingvistik nuqtai nazardan va lisoniy birliklarning funktsional-stilistik munosabatini belgilash masalalari kun tartibiga qo‘yilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiyaning tarixi yo‘nalishlari, taraqqiyot bosqichlari, ularning tasnifi va tavsifi kabi masalalari tadqiqi bo‘yicha B. Braysen, X. Sonneveld, J. Seyer, O.Vyuster;³ sport terminologiyasi, terminologiyaga oid nazariy qarashlar, sportga oid frazeologik birliklarning tadqiqi bo‘yicha A.Rey, P.Vayt, M.Mesz, R.Vaynz, V.Shvayko kabi olimlarning o‘rni benihoya katta⁴. Shuningdek, Z.Mirzoyev, A.Shafoatovlar tojik-ingliz tilidagi sportga oid birliklarning qiyosiy-terminologik tadqiqini amalga oshirishgan⁵. Rus tilshunosligida esa M.Lomonosov, D.Lotte, A.Superanskaya, V.Leychik, O.Axmanovalar terminologiya sohasida izlanishlar olib borishgan. V.Bogoslovskaya, I.Xmelevskaya, E.Gur‘eva, A.Avakova rus sporti lingvistik madaniyati atamalarini ilmiy jihatdan asoslab berishgan⁶.

³ Bryson B. Made in America. – William Morrow, 1994. – P. 27.; Sonneveld H., Loenning K. Introducing terminology, in Terminology, 1994. – P. 1-6.; Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990. – P. 262.; Wüster, Eugen; Cabré, María Teresa (ред.): Introducción a la teoría general de la terminología y a la lexicografía terminológica. 2ª ed., Barcelona: Institut Universitari de Lingüística Aplicada, Universitat Pompeu Fabra, 2003. ISBN 84-477-0648-6. – 227 б.

⁴ Rey A. Vocabuliste français, textes réunis et présentés par François Gaudin, Limoges, Éd. Lambert- Lucas, 2011. – P. 58.; Rey A.: artisan et savant du dictionnaire, Paris, Hermann Fasano, Schena Ed., 2010. – P. 133.; White P. Chambers Sport Factfinder. – Edinburg: Chambers, 2005.– P. 786.; Mesz M. Lexicological view of the language of the sport commentaries. – Českě Budyě jovice, 2014. – P.144.; Wines R.W. Sporting Frenchness: Nationality, Race, and Gender at Play: A dissertation for the degree of PhD. – Michigan University, 2010. – P. 223.; Швайко В.Д. Лингвостилистические особенности фразеологических единиц, образованных от сверсловных спортивных терминов и профессионализмов (на материале современного английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – С. 290.

⁵ Мирзоев З. Спортивные термины в таджикском и английском языках: Дисс...канд. филол. наук. – Душанбе, 2005. – 210 с.; Шафоатов А.Н. Таджикская спортивная терминология: Автореф. канд. филол. наук. – Душанбе, 2009. – С.28.

⁶ Ломоносов М.В. Полн. собр. соч.: В 11 т. Т. 4. – Москва-Ленинград, 1950-1983.– С. 368.; Лотте Д. С.

O'zbek tilshunosligida X.Rafiyev maktablarda jismoniy madaniyatni o'qitish metodikasini, M.Boboyorov mustaqillik davrida sport terminologiyasining boyish yo'llarini, Z.Abdullayeva O'zbekistonda sportning shakllanish va rivojlanish ildizlarini, G'.Ismoilov O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lish usullarini, M.SHokirova O'zbek tilidagi «sport» sememali birliklarning struktur-semantik hamda N.Kuldashova frantsuz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishgan. X.Sarimsoqov ingliz va o'zbek tillari sport terminlarining shakllanish xususiyatlari hamda sportga oid frazeologik birliklarning termin sifatida xoslanishi, N.Ayaqulov ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining qiyosiy-tipologiyasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan. R.Ismoilov, M.Norkinlar ruscha va o'zbekcha sport-fizkul'tura terminlari izohli lug'atini tuzishgan⁷. Ammo o'zbek tilidagi sport semantik maydonining funktsional-stilistik muammolari yaxlit tarzda, monografik planda maxsus o'rganilmagan.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida yuqorida nomlari qayd etilgan jahon, rus va o'zbek tilshunoslarining tadqiqotlari o'rganildi, ularning qarashlariga munosabat bildirildi va tadqiqotda o'zbek tilidagi “sport” semantik maydonining funktsional-stilistik muammolari alohida tadqiq etildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2019-2025-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot rejalari muvofiq “O'zbek tili birliklarining funktsional-stilistik va kognitiv-pragmatik tahlili masalalari” mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi “sport” semantik maydonining funktsional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilshunosligida sport leksikasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni batafsil o'rganish;

Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. – Москва, 1961.–160 с.; Суперанская А.В. Общая терминология. – Москва, 2003.–С. 56.; Лейчик В.М. Номенклатура - промежуточное звено между терминами и собственными именами. – Воронеж, 1974. – С. 13-24.; Ахманова О.С. Терминология лингвистическая. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990. – С. 509.; Хмелевская И. Лексикографическое представление спортивно-игровых терминов на основе сопоставительного исследования французской и русской терминосфер спортивных игр. – Екатеринбург, 2006. – С. 24. Гуреева Е. Спортивная терминология в лингвокогнитивном аспекте: Дисс. канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. – С. 176.; Авакова А. Наименования спортсменов в русском языке // Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1971. – 328 с.

⁷ Исмоилов Р., Норкин М. Русча ва ўзбекча спорт-физкультура терминлари изоҳли лугати. – Тошкент, 1961; Рафиев Х. Некоторые вопросы преподавания физической культуры в Узбекских школах: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1972; Бобоёров М. Мустақиллик даври спорт атамаларининг шаклланиши: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2002; Абдуллаева З. Ўзбекистонда спортнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: Тарих фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Исмоилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2011; Шокирова, М.Н. Ўзбек тилидаги «спорт» семемали бирликларнинг структур-семантик тадқиқи: филология фан. фалсафа д-ри дис. (PhD). – Фарғона, 2020; Кулдашова Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида спорт терминологиясининг миллий-маданий хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2020; Саримсоқов Х. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи: Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Аяқулов Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол.фан.б.фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Тошкент, 2021.

“sport” semantik maydonidagi til birliklarining leksik-semantik, funktsional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etish;

o‘zbek tili tizimidagi sport terminosistemasining boyish yo‘llarini ochib berish;

o‘zbek milliy sport turlariga oid hamda o‘zlashtirilgan atamalar me‘yorlashuvi jarayonlarini tahlil qilish;

“sport” semantik maydonidagi so‘z va atamalar izohli lug‘atini tuzishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili “sport” semantik maydonida qaraladigan nutqiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi sportga oid lug‘aviy birliklarning leksik-semantik va funktsional-stilistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tasniflash, tavsiflash, tipologik, stilistik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilshunosligida “sport” semantik maydoniga daxldor leksemalarning leksik-semantik va funktsional-stilistik xususiyatlari ilk bor monografik yo‘nalishda tadqiq etilgan hamda jismoniy madaniyatga oid leksik birliklarni milliy til korpusida aks ettirish muammosi ochib berilgan;

zamonaviy o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi sport va jismoniy madaniyatga oid leksik qatlam xalqaro sport terminosistemi bilan qiyosiy o‘rganilib, sport jurnalistikasida faol bo‘lgan ayrim janrlarning o‘zaro vazifaviy-kommunikativ farqlari “sport” kontsepti tahlili misolida dalillangan;

zamonaviy o‘zbek mediaolamida, xususan ayrim internet saytlari va kanallarida berilayotgan ma‘lumotlarda, badiiy matnlar, xalq dostonlari va maqollari matnida uchraydigan sportga oid leksik birliklar tahlili orqali ularning nutqda axborot uzatishning eng ommalashgan vositalardan biri ekanligi isbotlangan;

sport atamalarining publitsistik uslubda qo‘llanishi tahlili orqali zamonaviy o‘zbek sport jurnalistikasida kommunikativ strategiyaning, alohida kognitiv tafakkur olamining, lingvomadaniy muloqot shakllarining takomillashib va yuksalib borayotgani aniqlangan;

publitsistik uslub doirasidagi sport atamalarining so‘zlashuv va badiiy uslubga ko‘chishi va bu jarayondagi emotsional-ekspressivlik darajasi semantik-stilistik kengayish, metaforizatsiya va determinlashuv qonuniyatlariga ko‘ra rivojlanishi asoslangan;

“sport” semantik maydonidagi ot, sifat va fe‘l turkumlariga oid 568 ta leksik birlikning nomlovchilik, belgilash va harakat ifodalash xususiyatlari 7 ta mikromaydon doirasida morfologik teglash hamda milliy korpusda aks ettirilishi orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidagi “sport” semantik maydonining funktsional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan xulosalar sport terminlari bo‘yicha muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishga, matn tilshunosligi, o‘zbek tili stilistikasi, zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, ularning mukammallashuviga yordam berishi ilmiy-nazariy jihatdan

asoslangan;

mustaqillikdan keyingi va yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida publitsistik uslubning yangi bosqichga ko'tarilayotgani, zamonaviy mediaolamda sport va jismoniy madaniyatga oid so'z va iboralarning yaratilayotgani yoki chetdan kirib kelayotgani va buning natijasida unda sportga daxldor janrlar tilining tobora xoslanib, uslubiy chegaralanib borayotgani bundan keyingi yangi-yangi lingvistik tadqiqotlarga manba bo'lishi asoslab berilgan.

dissertatsiyada tadqiqqa tortilgan materiallar sport atamalari lug'atini tayyorlash, sohaviy terminlarning izohli lug'atini tuzishda, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sohaga oid ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarga, ulardagi ilmiy-nazariy qarashlarga tayanganligi; tahlil uchun tanlangan materialning hayotiyliigi; tilshunoslik ilmida sinalgan tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, olingan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** "sport" semantik maydoniga oid leksik birliklarning funktsional-stilistik tafovutlari, semantik-stilistik qatlamlarning differentsial belgilari hamda kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari tahlili orqali aniqlanganligi, shuningdek, sportga daxldor leksemalarning funktsional uslublararo xoslanishi, metaforizatsiyalashuvi, polisemantizatsiyalashuvi va konnotativ ma'nolari hamda sinonimik munosabatlari chuqur ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** olingan xulosalardan oliy ta'lim muassasalarining "Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili" ta'lim yo'nalishidagi bakalavriat hamda "Lingvistika: o'zbek tili" yo'nalishidagi magistratura talabalariga "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Leksikologiya", "O'zbek tili terminologiyasi", "O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati", "Komp'yuter lingvistikasi", "Korpus lingvistikasi" fanlaridan darslik va qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi quyidagicha:

zamonaviy o'zbek tilida "sport" semantik maydonidagi lug'aviy birliklarning iste'mol darajasi va ularni tadqiq etishning ilmiy-amaliy ahamiyati hamda milliy til korpusida aks etishi bilan bog'liq ilmiy xulosalardan 2021-2023-yillarda bajarilgan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 21-avgustdagi 542/01-01-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbekcha sport va jismoniy madaniyatga oid so'z va iboralarning faollashuvi va ommalashuvini funktsional-stilistik aspektda o'rganish imkoniyatlari kengaygan;

sport jurnalistikasi, sport va jismoniy madaniyat sohasi vakillarining muloqot xulqi madaniyati tadqiqi borasida kelingan ilmiy-nazariy xulosalar va tavsiyalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2023-2024-yillarda bajarilgan ALM-202304076-05 raqamli "Milliy neyropsixolingvistik tashxislash

metodikasini yaratish" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida sport terminologiyasiga oid leksik birliklar qo'llanilgan mavzularni yoritishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 2-oktabrdagi 04/5518-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu amaliy loyiha doirasida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar sport leksikasiga oid yangi ma'lumotlar va dalillar bilan boyitilgan;

"sport" semantik maydonidagi leksemalarning funktsional uslublararo farqlanishi, badiiy-publitsistik uslublarga xoslangan birliklarning emotsional-ekspressiv jihatlarini tahliliga oid xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005-raqamli "Qoraqalpoq fol'klorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi doirasida sport leksemalarining funktsional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, 2025-yil 6-maydagi 263/1-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu fundamental loyiha doirasida sport leksemalarining semantik-stilistik tahliliga oid yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

sport sohaviy birliklarining matndagi metaforizatsiyalashuviga doir xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532-raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alifbosi va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan 2025-yil 7-maydagi 206-son ma'lumotnoma asosida). Natijada milliy til leksikasiga oid kuzatishlar yangi ilmiy dalillar bilan to'ldirilgan;

sport sohaviy birliklarining matnda determinlashuvi va polisemantizatsiyalashuvi tahlil etilgan holatlardan "Semasiologiya" nomli darslikning "So'z va uning semantikasi o'rtasidagi munosabat" deb nomlangan faslida badiiy uslubda sportga oid leksemalar va frazemalar qo'llanishining emotsional-ekspressiv jihatlarini yoritishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-noyabrdagi 04/1-31-81-son ma'lumotnomasi). Natijada darslik sport o'yinlariga oid so'zlar funktsionalligi ularni qo'llashda birlamchi omil ekanligi haqidagi qarash yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

sportga oid matnlarning milliy korpusda aks ettirilishiga oid tadqiqotlardan B.Elov va X.Axmedova muallifligida tayyorlangan "O'zbek tili semantik analizatorining matematik modellari" nomli monografiyasi birinchi bobining "O'zbek tili semantik analizatorida matnlarni teglash usullari" deb nomlangan faslida sportga oid matnlarni teglashning tematik va semantik modellashtirish kabi jihatlarini yoritishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-noyabrdagi 04/1-31-82-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotda keltirilgan ilmiy-texnik materiallar, tematik modellashtirish algoritmlari, yashirin semantik tahlil haqidagi takliflar monografiya mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

sport jurnalistlari, sharhlovchilari va sportchilar nutqida qo'llaniladigan leksemalarning funktsional-stilistik xususiyatlariga doir xulosalardan O'zbekiston

Respublikasi Sport vazirligining 2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida sport milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi Samarqand viloyati sport boshqarmasining 2024-yil 14-avgustdagi 01-2092-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishiga doir ilmiy xulosalar "yo'l xaritasi"ning istiqbolli rejasining takomillashuviga ko'maklashgan;

o'zbek tilida xalqaro sport terminosistemasining iste'mol darajasi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyat televideniesi "Sport – salomatlik garovi" ko'rsatuvi stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-avgustdagi 01-07/221-son ma'lumotnomasi). Natijada sportga oid so'zlarning ishlatilishi va yozilishi bo'yicha berilgan tavsiyalar ko'rsatuv samaradorligining oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyada aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, 13 rasm, 7 jadvaldan iborat. Ishning umumiy hajmi 237 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek tilshunosligida sport leksikasining o'rganilishi**" deb nomlangan **birinchi** bobi uch bo'limdan iborat.

"Umumlingvistik tadqiqotlar va terminologik izlanishlar" deb nomlangan birinchi bo'limda jahon va o'zbek tilshunosligida sport leksikasiga oid olib borilgan umumlingvistik tadqiqotlar tahlil qilingan va bu borada yuzaga kelgan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan hamda ularga munosabat bildirilgan.

Tarkibiy jihatdan murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy hodisa sanaladigan sport sohasi terminlari jahon tilshunosligida shartli ravishda uch toifaga ajratiladi:

- umumiy sport terminlari (general sports terms);
- tor soha terminlari (bir yoki bir nechta sport turlarida qo'llaniladi) (mixed terms);
- sport fan terminlari (sports science terms).

Sport leksikasining ushbu qatlamlari chegaralaridagi shartlilikdan kelib chiqib, birinchi navbatda, ikkinchi guruhga asosiy e'tiborni qaratmoq to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sport leksikasini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish leksikologiya, leksikografiya, terminologiya sohalarida amalga oshirilishi mumkin. Bu ushbu yo'nalishning bevosita qaysi jihatining ochib berilishi bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, rus va ingliz tillarida ushbu yo'nalish mazmunining o'ziga xos sifatlari ilgari surilgan.

Sport leksikasini lingvistik tahlil qilishga kirishishdan avval ushbu leksik qatlamni sport turlari doirasida chegaralab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: barchaga ma'lum yoki ma'lum hududlardagina mavjud sport turlari kabi. Ularning har biriga tegishli leksik qatlam doirasida kuzatishlar olib borish navbatdagi vazifadir.

Sport terminlari semantik asosga ko'ra to'rt guruhga ajratiladi:

- sport anjomlari: *to'p, raketka, kamon*.
- harakatlar, ko'nikmalar: *otish, ushlash, yugurish, urish*.
- pozitsiyalar: *himoyachi, hujumchi, o'yinchi*.
- strategiya va taktikalar: *ofsayt, nokaut, nokdaun, zona*.

O'zbek tilshunosligida sport leksikasini o'rganishda dastlabki bosqichlardan biri sifatida tegishli ma'lumotlarni yig'ish va ularni tizimli ravishda tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish va sportga oid leksik birliklarni atroflicha o'rganish uchun quyidagi axborot manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- zamonaviy korpus lingvistikasi, ya'ni til birliklarini keng miqyosda qamrab oluvchi komp'yuter texnologiyalariga asoslangan vositalar;
- sportga oid izohli, tarjima va terminologik lug'atlar;
- sport mavzusiga ixtisoslashgan veb-saytlar va bloglar;
- professional sport sharhlari va tahliliy materiallar;
- sport yangiliklari va jurnalistik matnlar.

“Terminologiya va kasbiy sohalar leksikasini o'rganish tarixi” deb nomlangan **ikkinchi bo'lim**da jahon tilshunosligida terminlarni tartibga solish masalasi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotganmaganligi, shu boisdan keyingi yillarda ma'lum bir soha terminologiyasi ortida turgan kognitiv tuzilmalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan *kognitiv terminologiya* yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida paydo bo'lganligi qayd etilgan.

Terminologiyani sotsiopragmatik jihatdan o'rganish professional tajriba inson tafakkuriga qanday ta'sir qilishini, muayyan kasb vakillari, masalan, sportchilar, sport jurnalistlari yoki muxlislar voqelikni qanday anglashini aniqlash imkonini beradi. “Sport” semantik maydonidagi terminologiyadan to'g'ri foydalanish sport sohasiga oid maxsus bilimlarning to'g'ri o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

Jahon tilshunosligida sport terminologiyasi masalalari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. V.D.Shvaykoning ilmiy izlanishlari ingliz tilidagi sportga oid frazeologik birliklarning tadqiqiga bag'ishlangan bo'lsa, R.V.Vaynz tadqiqotlarida ingliz tili sport leksikasi tarkibidagi frantsuzcha o'zlashmalarning lingvostatistikasi va semantik xususiyatlari atroflicha

o'rganilgan⁸. A.D.Xayutin ingliz tilining etimologik lug'atniga asoslanib, terminologiya so'zi ilk bor nemis olimi S.Shyutts tomonidan qo'llanilganini ta'kidlagan⁹.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning asosiy tamoyillari va nazariyalarini taqdim etgan M.Mesz fikricha, zamonaviy ingliz tilining munozarali tushunchalaridan bo'lgan frazeologik birliklar mazmuni mantiqiy fikrlash orqali oydinlashadi. Chunonchi, *from start to finish* – “boshidan oxirigacha, startdan finishgacha”; *skin the cat* – “gimnastikada dumbaloq (umbaloq) oshmoq, yumalamoq, ag'darilmoq”; *the phrase “sudden death”* – “to'satdan o'lib qolmoq”; *the game ended in a sudden death playoff* – “o'yinning natijasi qo'shimcha vaqtda kim birinchi bo'lib shaybani darvozaga kiritgandan so'ng ma'lum bo'lishi bilan belgilandi, o'rganishga qarab aniqlandi”, kabi.¹⁰

R.V. Vines frantsuz madaniyatidagi zamonaviy sport bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslik, adabiyot va sport bilan chambarchas bog'liq tasvirlar, sportning millat, sinf, irq va jinsni aniqlashdagi roli masalalarini o'rgangan¹¹. A.Rey, P.Vayt, I.Ayverana kabi olimlarning ishlari ham sport terminologiyasi, terminologiyaga oid nazariy qarashlar va qonuniyatlarga qaratilgan tadqiqot ishlari sirasiga kiradi¹².

Rus tilshunosligida ham terminologiyaning tarixiy ildizlari, taraqqiyot bosqichlari, terminlarning milliy o'ziga xosligi, ularning tasnifi va tavsifi kabi masalalar tadqiqi bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, M.V.Lomonosov mahalliy atamalarni birlashtirish va rivojlanayotgan ilmiy sohalardagi atamalarni tizimlashtirish singari strategik yo'nalishlarni belgilab bergan. D.S.Lotte esa XX asrning 30-yillarida tilshunoslikning ilmiy tarmog'i bo'lgan atamashunoslikka asos solgan, atamalarning kelib chiqishi va shakllanishi, ularni tizimlashtirish va xalqaro miqyosdagi turli tillar atamalarining o'zaro ta'siri muammolariga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbek tilshunosligida terminologiya sohasida sezilarli tadqiqotlar amalga oshirilgan. R.Doniyorov, H.Dadaboev, I.Yuldashev, X.Jabborov, M.Abdiyev, H.Shamsiddinov, I.Pardayev, M.S.Ahatova, H.Bektemirov va E.Begmatov, R.S.Nuritdinova, O.F.Tursunova, G'.M.Ismailov, N.Qosimov, N.Shodmonov, M.X.Qosimova, X.V.Mirzaaxmedova, M.G.Ne'matova, G.G'ulomova, O.Ramazonov, M.A.Aliyeva, D.S.Saidqodirova, Z.A.Djurabaeva, X.Sh.Narxodjayeva, O.T.O'rino'va, X.E.Yodgorov, S.X.Nurmatova, T.Q.Valiyevlarning doktorlik (DSc) va nomzodlik (PhD) dissertatsiyalari, e'lon

⁸ Швайко В.Д. Лингвостилистические особенности фразеологических единиц, образованных от сверсловных спортивных терминов и профессионализмов (на материале современного английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1984. – С. 290.

⁹ А.Д.Хаютин. Термин, терминология, номенклатура. – Самарканд: изд.СамГУ, 1971. – С.33.

¹⁰ Mesz M. Lexicological view of the language of the sport commentaries. – Českě Budyějovice. 2014. – P.144.

¹¹ Wines R.W. Sporting Frenchness: Nationality, Race, and Gender at Play. A dissertation for the degree of PhD. – Michigan University, 2010. – P. 223.

¹² Alain Rey, vocabuliste français, textes réunis et présentés par François Gaudin, Limoges, Éd. Lambert- Lucas, 2011. – P. 58; Alain Rey: artisan et savant du dictionnaire, Paris, Hermann Fasano, Schena Ed., 2010. – P. 133.; White P. Chambers Sport Factfinder. – Edinburg: Chambers. – 2005. – P. 786.; Auverana, Iliana, et Patrick Forget (2010). «La normalisation en common law en français au Canada: Une étude de cas», L'Actualité langagière, décembre 2010.

qilgan monografiyalari va maqolalari bevosita o'zbek tili terminologiyasining dolzarb muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan¹³.

O'zbek tilshunosligida sport va jismoniy madaniyat leksikasi tadqiqiga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.X.Boboyarov mustaqillik davri sport terminologik tizimining o'zbek tili ichki imkoniyatlari hamda tashqi omillar asosida rivojlanish jarayonlarini, X.A. Sarimsoqov ingliz va o'zbek tillari sport terminlarining shakllanish xususiyatlari hamda sportga oid frazeologik birliklarning termin sifatida xoslanishini, N.B. Kuldashova esa frantsuz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etgan¹⁴.

“Sportga oid o'zbekcha matnlarning ctilictik tavsifi: determinlashuvi va policemantizatsiyalashuvi” deb nomlangan **uchinchi bo'limda** sportning dunyo xalqlari o'rtasida o'ziga xos muloqot shakliga aylanganligi va o'zbek sportchilarining ko'plab sport turlari bo'yicha jahon arenalariga chiqishi o'zbek tili rivoji va taraqqiyotiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Soha leksikasi nafaqat chet so'zlar, balki ichki imkoniyatlar hisobiga ham boyib bormoqda. Ana shunday imkoniyatlardan biri sport terminlari semantikasidagi ma'no kengayishidir.

Tildagi ayrim so'zlarning determinlashuvi hamda polisemantik o'zgarishlarga yuz tutishi orqali “sport” semantik maydoniga kirib borishi va o'ziga xos sport atamasiga – maxsus atamaga, muayyan atamaning atributiga yoki harakat ifodasiga aylanishida namoyon bo'ladi. Masalan, *yengmoq* – “g'alaba qozonmoq”, *kurashmoq* – “kurash tushmoq”, *qattiq turmoq* – “o'z pozitsiyasida mustahkam bo'lmoq”, *qarshi turmoq* – “qarshilik ko'rsatmoq” kabi.

¹³ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977; Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: “Фан”, 1973. –116 б.; Дадабоев Ҳ. Қадимги ёзма ёдгорликларда ҳарбий лексика // Адабий мерос, 1980, 3(15)-сон; Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунаrlари материаллари асосида) : Филол.фан. д-ри... дис.автореф. – Самарқанд, 2005; Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси: Филол.фан.номз. ..дис.автореф. – Тошкент, 1996; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилиқ терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол.фан.д-ри ...дис. автореф. – Тошкент, 2005; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилиқ терминларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол.фан. номз. ..дис. автореф. – Тошкент, 2006; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол.ф.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис.автроеф. – Тошкент, 2017; Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи: Филол.фан.номз. ..дис.автореф. – Тошкент, 1996; Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари. – Тошкент: Фан, 1985; Неъматова Г.Ҳ. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланиши: Филол.фан.номз. ..дис.автореф. – Тошкент, 1998; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дис. ..канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. -18 с.; Пардаев И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол.фан. номз. ..дис. автореф. – Тошкент, 1994. – 27 б.; Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: “Фан”, 2002. – 48 б.; Аҳатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол.фан.номз...дис. афтореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол.фан. номз.. дис.автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.; Турсунова О.Ф. Тарихий манбаларда ҳуқуқ терминларининг қўлланиши: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 2009. – 27 б.; Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол.фан. номз. ..дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 27 б.; Ўзбек терминологияси: бугунги ҳолати ва истикболи. Профессор Ҳамидулла Дадабоев таваллдуининг 70 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. -215 б. ва бошқ.

¹⁴ Бобоёров М. Ҳ. Мустақиллик даври спорт атамаларининг шаклланиши: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2002. – 33 б; Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи: ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 50 б; Н.Б.Кулдашова. Француз ва ўзбек тилларида спорт терминологиясининг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. фалс док. дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 52-б.

Sport matnlaridagi determinatsiya quyidagi matnda yaqqol namoyon bo'lgan: *Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, AQShda o'zbekistonlik sportchilarni yaqindan qo'llab-quvvatlab keluvchi Azamat Asadovning ma'lum qilishicha, katta ehtimol bilan ushbu jangdagi g'alaba, Firdavs Hasanovning UFC bilan shartnoma tuzish imkoniyatini taqdim etar ekan. Albatta, yurtdoshimizga ushbu jangda omad tilaymiz!* (www.sport.uz). Matndagi *jang* so'zida dastlab metaforizatsiya hodisasi sodir bo'lib, sport sohasining maxsus harakatni ifodalovchi terminga aylangan. Uning davomida yana terminlik doirasidan chiqib, musobaqa mazmunini anglatgan.

O'zbekcha sportga oid matnlaridagi til birliklarining polisemantizatsiyaga yuz tutishi ham uslubiy ehtiyoj bilan bog'liq. Jurnalistik publitsistikada, ayniqsa, sport arenalaridan berilayotgan reportajlarda, sport maydonlaridan to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilayotgan o'yinlarning sharhlarida his-hayajonlarni berish, ifodaning ta'sirchanligini oshirish uchun so'zlar konnotativ ma'nolarda qo'llaniladi. Bu erda ham metaforizatsiyalashuv, metonimizatsiyalashuv jarayonlari faol ishtirok etadi, o'xshatish vositalariga tez-tez murojaat qilinadi: *Ronaldu qizil oldi, Frantsiya yo'llanmani hal qildi.* (kun.uz/kr/93504057.14.11.2025). **Millionlar o'yini** atrofida *"uchayotgan" milliardlar. Yoki o'zbek futboli oyog'ini "kishanlayotgan" ommaviy illatlar xususida* ("Samarqand" gazetasi). *Jahon kubogi. Bugun uch nafar charm qo'lqop ustalarimiz ringga chiqadi.* (<https://olamsport.com/uz/news/119430>). Ayni paytda, bu kabi qo'llanishlarda milliylik va lingvomadaniy xususiyatlar ham sezilib turadi.

Shunday qilib, sport – inson hayoti uchun g'oyatda zarur ijtimoiy hodica va univerval tabiatga ega bo'lgan jismoniy-madaniy fenomeni hicoblanadi. Har qanday til tizimida mavjud bo'lgan sport leksikasi nafaqat o'sha tilning, balki uning egasi bo'lgan xalqning milliy mentalitetini, etnografiyasini, madaniy olamini o'zida mujassam qiladi. Dunyo tilshunosligida sport leksikasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilayotganining sababi ham shu.

Sport sohalarining olamshumul mazmunga ega bo'layotgani tufayli tilshunoslik ilmida ham sportga oid leksik birliklarning, xususan terminologiyaning diaxronik va sinxronik planda o'rganilishi hamda uning lingvomadaniy asosga qo'yilishi yaxlit tizim holiga keltirilayotgani e'tiborga molikdir.

Sport terminologik tizimining rivojlanishi ilk atamalarining paydo bo'lishi, ctandartlashtirish jarayoni va zamonaviy terminologiya bazalarining shakllanishi tarzida bosqichlarga bo'linib tadqiq etilayotgani buning dalilidir. Sport kommunikativ munosabatlarining tobora umuminsoniy va umumjahoniy mazmun kasb etib borayotgani, uning alohida leksik qatlami va terminologik tizimi rivojlanib borayotgani uni har bir alohida til kesimida lingvistik tadqiq etishni taqozo etadi va bu vazifa o'zbek tilshunosligida ham imkon qadar bajarilmoqda.

Keyingi o'n yilliklarda o'zbek tili terminologik tizimida yangi-yangi tushunchalar va atamalar yuzaga keldi hamda tilimiz leksik tarkibida turg'unlashdi. O'z navbatida, ularning paydo bo'lishida faol ishtirok etadigan lingvistik va ekstralingvistik, ichki va tashqi omillar tadqiqi ham kun tartibiga qo'yildi. Sport va til o'rtasidagi aloqaning kognitiv jihatlarini chuqur o'rganish vazifa qilib belgilandi. eng ko'p qo'llaniladigan fe'l shakllari va ularning muayyan Sport

turlari yoki sharhlash strategiyalari bilan bog‘liqlik jihatlariga e‘tibor qaratila boshlandi.

O‘zbek ommaviy axborot vositalari, teleradiokommunikatsiyalarning jahon standartlariga muvofiqlashtirib borilayotgani, sport ko‘rsatuvlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri transilyatsiya qilishning va sharhlashning yo‘lga qo‘yilayotgani milliy mediaolamda ona tilimizning faol ishtirokini ham ta‘minladi. Buning natijasida alohida o‘zbek milliy sport tili ham asta-sekinlik bilan shakllanib va rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun ham sportga oid o‘zbekcha matnlarni kompleks tahlil qilish, har bir sport leksemasining semantik maydonini atroflicha o‘rganish va bunda milliy psixologik hamda madaniy aspektlarni e‘tiborga olish ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Dissertatsiyaning **“Sport” semantik maydonidagi leksemalarning funktsional-stilistik xususiyatlari**” deb nomlangan **ikkinchi bobi** to‘rt bo‘limdan iborat. Unda yagona “sport” semantik maydonida birlashgan leksemalar muloqot jarayonida xoslanishlarga yuz tutishi, muayyan bir funktsional uslub doirasida alohida stilistik belgilari bilan namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

“So‘zlashuv uslubida sport leksemalari” deb nomlangan **birinchi bo‘limda** o‘zbekcha sportga oid matnlarning muayyan qismida so‘zlashuv uslubiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar kuzatilishi, bu holatlar sport shonavdalarining qizg‘in og‘zaki va norasmiy bahs-munozaralari, sport sharhlovchilarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri sport arenalaridan reportajlar olib borishi bilan bog‘liqligi haqida gap boradi. Sportchilarning yoki shonavdalarning ma‘lum sport sohasi doirasida qo‘llaydigan jargonlari va laqablari mavjudligi, bu til birliklari ularning o‘zaro va murabbiylari bilan tezkor va faqat o‘zlari tushunadigan aloqani ta‘minlashga xizmat qilishi ta‘kidlanadi.

Bo‘limda sport va jismoniy madaniyatga oid til birliklarining og‘zaki nutqda shu nutq talab va me‘yorlariga bo‘ysunishi ko‘rsatib berilgan. Mustaqillikdan keyingi davrda jismoniy tarbiya va sport atamalariga o‘zbekona ruh berishga intilish tobora ortib borayotgan bo‘lsa-da, so‘zlashuv nutqida hamon quyidagi misollarni kuzatish mumkin: *absolyut chempion* – “mutlaq chempion”, *sudya* – “hakam”, *sudyalik* – “hakamlilik”, *baryer* – “to‘siq”, *giry*a – “qadoqtosh”, *ippodrom* – “otchopar”, *massaj* – “uqalash”, *snayper* – “mergan”, *trenirovka* – “mashq, mashq qilish, jismoniy mashq, mashg‘ulot”, *finish* – “marra” kabi.

Sport sharhlovchilari tilida uchraydigan *plaster to‘p tepish*, *fint qilib o‘tish*, *obvotka qilish*, *dlinniy pas*, *blijniy uchni yopish*, *odna kasaniya*, *maxfiy uprajnenie*, *pozitsonniy mashqlar*, *pozitsonniy hujum* singari jumlar ham o‘zini oqlamaydi va ularga o‘zbek tili me‘yorining buzilishi deb qarash lozim.

So‘zlashuv uslubi doirasida qo‘llaniladigan *charm to‘p* – “futbol koptogi”; *charmto‘p ustasi* – “futbolchi” singari o‘z so‘z va iboralari mavjud. *Ustun kelmoq*, *qo‘li baland kelmoq*, *boy bermoq*, *jonli devor* singari jumlar ham so‘zlashuv uslubiga xos: Qizlar bellashuvida 64, yigitlar musobaqasida esa 54-umumta‘ldim maktablari **ustun kelishdi** (“Urugut sadosi” gazetasi). *O‘zaro kuch sinashuvlarda 128-maktab engil atletikachilarining qo‘li baland kelib*, *1-o‘rinni egalladilar*. *2-o‘rin 34, faxrli 3 va 4-o‘rinlar 35 va 56-maktablar o‘quvchilariga nasib etdi*

(“Urgut sadosi” gazetasi). *Bel’giyalik taekvondochi bilan kechgan bahsda so‘nggi soniyalarda g‘alaba qo‘ldan boy berildi.* (Zarnews_uz.10.09.2024). Yaxshiyamki, futbolchilarimiz jonli devor hosil qilishdi (Radioreportajdan) kabi.

Sportning karate turida qo‘llaniladigan *oq belbog‘, ko‘k belbog‘, qizil belbog‘, qora belbog‘* singari metaforik birikmalarning yuzaga kelishiga ham ularning og‘zaki nutqda denotativ ma’noda qo‘llanilishi asos bo‘lgan. Braziliyalik futbol afsonasi Pelega nisbatan qo‘llaniladigan *futbol qiroli* metaforasini o‘zbek futbol muxlislari so‘zlashuv nutqida Mirjalol Qosimovga nisbatan ham ishlatishadi. Agar *o‘zbek futboli qiroli* tarzida qo‘llanilsa u publitsistik yoki rasmiy uslubga ko‘chgan bo‘ladi.

Matnda *engmoq* ma’nosida keladigan *g‘olib chiqmoq, g‘alaba qozonmoq, raqibni mag‘lubiyatga uchratmoq, ustun chiqmoq, qo‘li baland kelmoq* sinonimik qatoridagi iboralarda rasmiy va publitsistik uslublarga xoslanishlar mavjud. Ulardan *ustun chiqmoq/ustun kelmoq, qo‘li baland kelmoq* og‘zaki nutqda ko‘p aytiladi.

“Ilmiy uslubda sport leksemalari” deb nomlangan **ikkinchi bo‘limda** ilmiy manbalarda uchraydigan sportga oid leksemalar tahlil qilingan va bunda ilmiy matnlarning akademik, ilmiy-didaktik va ilmiy-ommabop xarakteri inobatga olingan.

Akademik yo‘nalishda yozilgan monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda ilmiy uslubga xos bo‘lgan *sport tarixi, sport terminologiyasi, sport turlari, sportning milliy turlari, xalqaro sport maydoni, sport tili* singari so‘z va birikmalardan tez-tez foydalaniladi. Ilmiy bayon uslubi uchun tipik bo‘lgan nutqiy oborotlar qo‘llanadi. Masalan: *“Sport terminosistemasining ierarxik tarzda tashkil qilingan tuzilma sifatida faoliyat ko‘rsatishida sport terminlari elementlarining o‘zaro paradigmatic va sintagmatic munosabatda bo‘lishi language in absentia va language in praesentia tamoyillari asosida aniqlangan”* (N.A.Ayaqulovning “Ingliz va o‘zbek tillarida sport terminlarining qiyosiy-tipologik tadqiqi” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy jarajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferatidan,8).

Ilmiy-didaktik yo‘nalishda yozilgan darslik, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalarda tavsiya xarakteridagi so‘z va jumlar qo‘llaniladi: *“Talabalar mavzu yuzasidan o‘tiladigan laboratoriya mashg‘ulotlarida sport inshootlari va ularni uskunalar bilan jihozlanishni o‘rganadilar. Mavzuni o‘rganishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiya, sxema va plakatlardan foydalanadilar”* (K.Yusupovning “Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasidan) kabi.

Ilmiy-ommabop janrdagi nashrlarda ham ilmiy uslubga doir so‘z va jumlar uchraydi: *“Shu o‘rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan o‘quvchi va talabayoishlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya hamda sportga jalb qilish maqsadida joriy etilgan uch bosqichli musobaqalar tizimiga ham alohida to‘xtab o‘tish lozim. Shuningdek, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” o‘yinlarining an’anaviy tarzda o‘tazilib kelinayotgani farzandlarimizni sog‘lom kamolga yetkazish, iste’dodlarni aniqlash, ular mahoratini oshirish, shu orqali terma*

jamoalarning zaxirasini shakllantirishda muhim omil bo'lmogda” (“Farzandlari sog'lom yurt” maqolasidan. “Xalq so'zi” gazetasi №206-son) kabi.

“Sport” semantik maydonidagi ilmiy uslubga xos jihatlardan yana biri – bu sohada kitobiy va betaraf so'zlarning to'g'ri ma'noda qo'llanishi, oddiy so'zlashuv va sheva elementlari yoki jargonlarning ishlatilmasligidir. Ilmiy matnlarda sportga oid tipik nutqiy iboralar, ilmiy terminlar va atamalar keng qo'llanilib, fikrni aniq va tushunarli yetkazishga xizmat qiladi. Kirish bo'laklar hamda fe'lining majhul nicbat shaklida berilishi matnning obyektiv va racmiy ko'rinishini ta'minlaydi.

“Publitsistik uslubda sport leksemalari” deb nomlangan **uchinchi bo'limda** sportga oid muloqot shakllaridagi makon fenomeni universal yoki milliy madaniyatning bir qismi sifatida qaralishi; sport diskursining jurnalistlar, sport sharhlovchilari nutqlari, yoki bo'lmasin, sportchilarning boshqa nutqiy ko'rinishlari tahlil qilingan.

Ma'lum bo'ldiki, publitsistik uslubda ko'plab atamalarning qo'llanilishi ularning sport sohasida faoliyat turi va makoni sifatida ixtisoslashgani bilan bog'liq: *sharhlovchi, sport sharhlovchisi, sharhlovchi kabinasi, sharhlovchi konsoli* singari.

Sport leksemalarining yana bir qismi diskursda jozibadorlik va jarangdorlikka intilishdan paydo bo'ladi. Leksemalarning metaforizatsiyalashuvi va perifrazaga yuz tutishi oqibatida sport musobaqalir o'tadigan manzil egalarining *mezbonlar*, boshqa joydan kelib shu manzilda musobaqadan ishtirok etadiganlarning *mehmonlar*, raqiblarning to'p kiritishiga moslashtirilgan joy va qurilmaning *darvoza*, vazifasi u erga to'p kiritmaslik – ushlab qolishlik bo'lgan o'yinchining *darvozabon*, juda mashhur bo'lib ketgan darvozabonning *darvoza qiroli* deb nomlanishlari ana shu intilish sababidandir.

Publitsistik uslubga doir matnlarda ilk qo'llanish paytida metaforik xarakterda va obrazlilik kuchli bo'lgan sportga oid jumlarlar vaqtlar o'tib o'z jozibadorligini yo'qotishi tilning stilistik qonuniyatlariga mosdir. Masalan, **Jamoadoshlari** Nodirbek Yoqubboyev, Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorovlar bilan birgalikda jahonning etakchi shaxmatchilariga qarshi dona surgan Jahongir g'alabaga munosib hissa qo'shdi (“Samarqand” gazetasi). Yugurish davomida 121-maktab sportchisi Aziza Pardayeva o'zidan hech kimni oldinga **o'tkazib yubormay** marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tdi va musobaqa g'olibi bo'ldi (“Urgut sadosi” gazetasi) gaplaridagi *jamoadosh, jangga kirish, hujum harakatlari, o'tkazib yubormoq* kabi so'z va jumlar ana shu sababga ko'ra stilistik bo'yoqdorligini yo'qotgan.

Shuningdek, o'zbek tili terminologik tizimiga sportga oid leksemalarning chetdan kirib kelishi sport turlarining mamlakatimizda ommalashishi bilan bog'liq. Ammo jahon sportining ayrim turlari bo'yicha reportajlar olib berilayotganda sport sharhlovchilari tilida qo'llaniladigan ayrim so'z va iboralar mavjudki, ularning ommalashishini vaqt ko'rsatadi. Masalan, avtomobil sportiga tegishli bo'lgan *pit-leyn, pit-stop, feyr-pley, peys-kar, poul-pozishn, paddok* singari birliklar haqida shu fikrni aytish mumkin. Publitsistik uslub doirasida qaraladigan avtomobil sporti sohasida *avtosport, avtomobil sporti, poyga, avtopoyga, avtokross, avtomobil poygasi, ko'k bayroq, start maydoni* singari til birliklari sport shinavandalari uchun

tushunariligi ularning ommalashgani tasdig'idir.

Sportga oid matnlarning publitsistik uslubga xos jihatlari sport jurnalisti va sport sharhlovchilarining nutqi tarzida namoyon bo'ladi. *Sport sharhlovchisi* real vaqtda, asosan og'zaki shaklda ijod qiluvchi, axborotni ekspromt tarzda yetkazuvchi shaxsdir. Uning faoliyati "sharhlovchining kabinasi" yoki "sharhlovchining koncoli" ortida bo'ladi va tomoshabinlarga ko'rinmaydi. *Sport jurnalisti* sportga oid teleko'rsatuv dacturlarida ekranda paydo bo'lib, axborotni og'zaki va yozma shaklda taqdim etadi. Ularining faoliyati va nutqida o'xshashliklar mavjud: har ikkisi ham sharh va reportaj janrlarida ijod qilishadi. Axborotni ixcham va aniq tarzda ifodalaydi. Matnlar ko'pincha sodda va qisqa bo'lib, murakkab iboralardan kam foydalaniladi. Fakt va dalillarni taqdim qilishda esa sport sohasiga xos maxsus terminlardan keng foydalaniladi.

"Rasmiy uslubda sport leksemalari" deb nomlangan **to'rtinchi bo'limda** o'zbek tili rasmiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qisqacha mulohaza yuritilgandan so'ng rasmiy matnlarda uchraydigan sport leksemalariga munosabat bildirilgan.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, "sport" semantik maydonidagi so'z va iboralarning rasmiy matnlarda uchrashi sport va jismoniy tarbiyaga oid qonunlar, hukumat qarorlari, vazirliklar buyruqlari, turli mazmundagi nizomlar kabi rasmiy hujjatlar bilan bog'liq.

Sportga oid eng muhim hujjat – «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (4.09.2015) tahliliga asoslanib aytamizki, rasmiy uslubda shakllantirilgan matnlarda "sport" semantik maydoniga daxldor bo'lgan til birliklari qo'llanilishini quyidagicha guruhlash mumkin:

ommabop so'z va jumlar: *aholini sog'lomlashtirish, jismoniy reabilitatsiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya va sport, jismoniy tarbiya va sport sohasi, jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish inshooti, jismoniy tarbiyalash, sport, ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi, sport inshooti, sport musobaqasi, sport tadbirlari, sport turi, milliy sport turlari va xalq o'yinlari, sport terma jamoalari, sportchi, sport jihozi, anjomi va sport kiyim-boshi* kabi.

maxsus so'z va jumlar: *jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro hamkorlik, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, professional sport, sport bo'yicha agent, sport turining tarmog'i, sport federatsiyasi, sport hakami, sportning texnik va amaliy turlari, sportning harbiy-amaliy turlari, sportchining sport diskvalifikatsiyasi, trener, O'zbekiston olimpiya harakati. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari, havaskorlik sporti singari;*

faqat rasmiy uslubga xos bo'lgan so'z va jumlar: *jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlik, jismoniy tarbiya va sport subyektlari, jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunchilik, jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish, jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tibbiy ta'minoti, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, sport pasporti, sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish, sportchining huquq va majburiyatlari* kabi.

O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga qaratilgan har

bir hujjat turi ikkinchisidan mazmunan va ma'lum darajada til va uslub jihatdan farqlanishiga qaramasdan, ularda mana shu uch yo'nalish saqlanib qoladi.

Shuningdek, *shohsupaga ko'tarilmoq, o'zbek sporti uchun chinakam oltin kun, sportga muhabbat, burchak zarbasini ijro etmoq, futbol spektakli qo'ymoq, yulduz, Husanov Rodrigoga qarshi, peshqadamlikni tortib olmoq, medalini naqd qilmoq, boks afsonasi Muhammad Ali, boks oqshomi, boks afsonasi Rufat Risqiev singari so'z va jummalarning sportga oid matnlarda qo'llanishida badiiy uslubga xos bo'lgan obrazlilikni, metaforizatsiya, metonimizatsiya, personifikatsiya kabi tasviriy vositalarning samarali qo'llanishi kuzatiladi.*

Ushbu bo'limda yana "sport" semantik maydonidagi leksemalarning funktsional-stilistik tadqiqi ularning mikromaydonlararo taqsimoti – shaxs (*sportchi, tennischi, murabbiy, hakam, trener, muxlic*); narsa-buyum (*turniket, to'p, chavgon, raketka, kamon, rapira, qilich, shamshir*); joy (*sport maktabi, sport qo'mitasi, sport maydoni*); jarayon (*uchrashuv, bellashuv, uloqtiruv, burilish, irg'itish, payt poylash, cakrash, canchish, tezlatish, emaklash, yugurish, qaytarish, qalqish, quvish, quvlash*) nomlarini ifodalovchi kubmikromaydonlarni o'z ichiga olishi va bu izlanishlar ularning sport amaliyotidagi qo'llanilishini chuqur o'rganish bilan bog'liqligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **"Badiiy uslubda sportga oid leksemalar va frazemalar qo'llanishining emotsional-ekspressiv jihatlari"** deb nomlangan **uchinchi bobi** to'rt bo'limdan iborat.

"Xalq dostonlarida sport leksemalari" deb nomlangan **birinchi bo'limda** o'zbek xalq dostonlari matnida uchraydigan sport leksemalari tahlil qilingan.

Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan Markaziy Osiyo hududida qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, uyg'ur va boshqa xalqlar bilan yaqin aloqadorlikda hayot kechirib kelgan. Ularning ijtimoiy turmush madaniyati bir-biriga mushtarak bo'lib, urf-odatlar, marosimlari ham uyg'unlashib ketganligidan milliy sport o'yinlarida ham yaqinlik mavjud. Masalan, ko'pkari-uloq, poyga, ot ustida kurashish, kurash kabi o'yinlar hududda keng tarqalgan.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Qirq qiz", "Tohir va Zuhra" va boshqa o'nlab xalq og'zaki ijodi namunalari sabab xalq o'yinlarining nomlari saqlanib qolgan va bizgacha etib kelgan.

Bu badiiy san'at asarlari orasida "Alpomish" dostoni nafaqat badiiy xususiyati, balki lingvoetnografik ma'lumotlarga boyligi bilan ham alohida o'rin tutadi¹⁵.

"Alpomish" dostonida kurash tushish, yoy va ot sportiga oid: *kurash, kurash qilmoq, yoy tortmoq, yoyandoz, ko'pkari, mergan, merganlik, merganchilik, poyga, alp, polvon, sovrin, solim, uloq, chavandoz* leksemalari uchraydi. Masalan: ***Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp, har qaysisi to'qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to'qson shirbozning etini ta'til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'b birlanchi zo'r polvondir*** kabi.

¹⁵ Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф.дис. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1990. –19 с.; Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.

Birgina *poyga* soʻzining doston matnida 54 marta qoʻllanilganligi ot sportining xalqimiz tarixida qanchalik rivojlanganligi va ommalashib ketganligidan dalolat beradi. Masalan: *Boboxondan poyga qilib oʻzdirsa, Oti ildam boybachchaga tegaman.*

Ulugʻ baxshi Fozil Yoʻldoshning kognitiv olamida ushbu soʻzning nafaqat qoʻllanish, balki maʼno koʻlamining ham favqulodda kengayib borganligi kuzatiladi. Masalan: *Poygachilar har kuniga ot sovutib, yolgʻon poyga qoʻyib keladi. Boychibor otlarning changini koʻrmay qoladi. – «Oʻyinda oʻzgan chinda oʻzadi» degan gap bor, hazil poygada otning changini koʻrmay qoladi. Chin poyga boʻlgan soʻng qanday keladi? – deb qalmoqlar bogʻonagʻa koʻr boʻlgan sinchiga izza beradi.* Doston matnidan poyganing chin, yolgʻon, hazil tarzida farqlanganligini koʻramiz.

Gap tarkibidagi *yolgʻon* va *hazil poyga* ni hozirgi tilimizdagi “mashgʻulot” maʼnosida, *chin poyga* ni esa “haqiqiy musobaqa, bellashuv” maʼnosida tushunishimiz toʻgʻri boʻladi. *Poyga* soʻzi *qilmoq*, *boʻlmoq*, *qoʻymoq* feʼllari bilan birikkanda maʼnoda farqlanishlar yuz bergan: *poyga qilmoq* – “ot sportidagi umumiy jarayonning nomi”: *Oʻzbakning qizining aytgan soʻzi shul boʻldi: “Poyga qilaman, otini oʻzdirganga tegaman; kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman; ming qadimdan tanga-pulni urgan qiragʻay merganga tegaman”, – dedi.*

Poyga boʻlmoq jumlasini ikki maʼnoda kelgan: 1. Umuman jarayonning amalga oshishi: *Bu soʻzni eshitib, Koʻkaldosh alp aytdi: – Oʻzbakning qizining koʻngli menda, poyga boʻlsa, oʻzib kelmoq Koʻkdoʻnonning tani.* 2. Barchinga nisbatan qoʻllanganda gʻoyatda kuchli poetik vositaga aylangan: *Otlarni tobla, xoʻb parvarish qilib qara, manglaylarini sila, oʻzbakning qizi poyga boʻladi, nasib etgan oladi. Boysarining qizi poyga boʻlibdi, Bizning yurtga shuytib xabar kelibdi.* U zamonlarda ham musobaqalarda, jumladan ot poygasida oʻrtaga sovrin qoʻyilgan. Orini, nomusini poygaga sovrin qilib tikkan Barchinning harakati “*poyga boʻlmoq*” iborasi zimmasiga yuklatilgani baxshi badiiy mahoratining tasdigʻidir.

Poyga soʻzidan *poygachi*, *poygaboshi*, *poyganing oldini olmoq* kabi soʻz va iboralari yasalgan: *Poygachilar har kuniga ot sovutib, yolgʻon poyga qoʻyib keladi. Qorajon bizning ishimizni qipti, oʻzbakning oti poyganing oldini opti. Qorajon qoʻloq solmay ketdi, xonning Chibor oti poyga boshi boʻlib, oldiga oʻtdi.* Gaplarda *poygachi* – “musobaqada bevosita ishtirok etuvchi”ning nomi, *poyganing oldini olmoq* – “musobaqa gʻolibi”, *poygaboshi* – “poygada eng oldinda borayotgan poygachi” maʼnolarini anglatgan. Dostonda qoʻllangan *Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga yigʻilgan ot toʻrt yuz toʻqson toʻqqiz ot boʻldi* gapidagi *Barchinning poygasi* metonimiya qoidalariga amal qilingan gʻoyatda xalqona jumladir. Shu tarzda “Alpomish”dagi *poyga* soʻzida milliy qadriyatlarimiz timsolini koʻramiz.

“Sport” semantik maydonidagi *pahlavonlik*, *jacurlik*, *merganlik*, *chavondozlik* kabi soʻz va iboralarning “Alpomish” dostoni misolidagi tahlili ularning xalqimiz orasida lingvomadaniy meros sifatida juda qadimiy ekanligini tasdiqlaydi.

Ma'lum bo'ladiki, semantik transformatsiya – so'zlardagi ma'no ko'chishi, uning oqibatida tilda polisemantik so'zlarning paydo bo'lishi va shu tarzda leksik birlik semantik maydonining kengayishi sport leksemalariga ham xos xususiyatdir. O'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan dostonlar tilida saqlanib qolgan va hozirgi tilimizda ham faol qo'llanib kelayotgan xalqimiz o'g'lonlarining mardligi va bahodirligi timsoliga aylangan sport o'yinlarining *kurash*, *ko'pkari*, *poyga*, *polvon* kabi yuzlab leksik namunalari buning dalilidir.

“Xalq maqollarida sport leksemalari” deb nomlangan **ikkinchi bo'limda** “sport” semantik maydonida barqarorlashgan leksik birliklarning o'zbek xalq maqollari semantik-stilistik ma'nolariga ta'siri masalalari tahlil qilingan.

Maqollar tarkibida bir qadar barqarorlashgan leksemalar sifatida *kurash* va *maydon* elementlarini ko'rsatish mumkin.

Sportning mumtoz turi sifatida o'zbek xalqining ijtimoiy faoliyatidan mustahkam o'rin olgan *kurash* so'zi allaqachon atamalik doirasidan chiqib ulgurgan va keng ma'noda biron-bir maqsadga erishish yo'lidagi harakatni anglatadi. Ammo maqollar tarkibida u asosan o'zining ibtidoiy ma'nosini – atamalilik xususiyatini saqlab qolgan.

Maqollar tarkibida *kurash* leksimasi ko'pincha *mardlik* so'zi bilan yonma-yon yurishi kuzatiladi: *Do'st kulfatda sinalar*, ***mard*** – ***kurashda***; ***Mard*** – ***kurashda***, *do'st* – *tashvishda*, *Dono g'azabda sinalar* kabi. Demak, kurashishning shartlaridan birini mardlik deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Hatto *Kurashda otangni ayama* maqoli mazmunida ham mardlik, tantilik yotadi. *Kurash qurbonsiz bo'lmas* maqoli mazmunida esa mardlik, mag'lubiyatni tan olish ottenkasi bor. Shuningdek, *Yiqilgan kurashga to'ymas*. *Yutqazgan o'yinga to'ymas*, *Yiqilgan* – *kurashga* maqollari mazmunida ham mardlikka da'vat qilish yotadi¹⁶.

Mardlikning namoyon bo'lishidagi makon – “maydon” ham maqollar matnida *kurash* arenasi sifatida ishtirok etadi. Inson fenomenida ulug'lanadigan *jasorat* sifati ana shu triada-uchlik: *mard*→*maydon*←*kurash* doirasida namoyon bo'ladi: ***Mard maydonda sinaladi***. ***Mard maydonda bilinar***, ***Mard*** kuchini ***maydonda*** ko'r kabi. Metonimik xarakterda shakllangan ushbu maqollarda *kurash* so'zi ham botinan ishtirok etayotgan bo'ladi.

Ushbu maqollar yaxlit hoida nafaqat publitsistik, balki boshqa turdagi matnlarda ham metaforizatsiyaga yuz tutganda ekspressiv tasviriy ifoda sifatida qimmatga ega bo'ladi.

Sport jurnalistikasida faol qo'llaniladigan *Sport – sog'lik garovi*, *G'alaba qozonish uchun avval yutqazishni o'rganish kerak* singari iboralar aforizm darajasiga etgan.

Demak, o'zbek xalq maqollarining muntazam boyib borishida til tizimidagi boshqa lingvistik birliklar qatorida sport leksemalari ham muayyan o'rin tutadi. Sportga oid maqol va matallar milliy va umuminconiy qadriyatlarning lingvomadaniy ko'rinishi sifatida ahamiyat kasb etadi.

¹⁶ Ўзбек халқ мақоллари, 2 томлик. Биринчи том. Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. – Тошкент: “Фан”, 1987. – 368 б.; Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусакулов, Б.Саримсоқов. – Тошкент: “Шарқ”, 2003; Сўздан сўзнинг фарқи бор. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2005.

“*Alisher Navoiy asarlarida sport leksemalarining qo‘llanilishi*” deb nomlangan **uchinchi bo‘lim**da Alisher Navoiy asarlari nafaqat qadimgi milliy o‘yinlar haqida ma‘lumot olishi mumkin bo‘lgan manbagina emas, balki jismoniy madaniyat va sport terminologiyasining obrazli tasvir yaratishdagi yuksak namunasi sifatida ham g‘oyatda qimmatli ekanligi ta‘kidlangan¹⁷.

Ulug‘ mutafakkirning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr” va boshqa qator asarlarida xalq o‘yinlariga munosabat bildirilgan holatlar ko‘p. Atoqli navoiyshunos olim A.Hayitmetovning guvohlik berishicha, Navoiy asarlarida uchraydigan sport atamalari, birinchidan, badiiy-estetik maqsad uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchidan muayyan sport turlariga tavsif berilgan, musobaqa ishtirokchilarining ichki va tashqi qiyofasi hamda jarayon bilan bog‘liq lavhalar chizilgan¹⁸.

Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning bolalik chog‘larida sportga qiziqqanligi, harbiy mashqlar bilan shug‘ullanganligi, Navoiy kuch sinash bilan bog‘liq sport turlariga “zo‘ri” atamasini, sportning murakkab, jasorat ko‘rsatish bilan bog‘liq qiyin turlarida “dilovarlig‘” degan atama ishlatilganligi aytiladi:

*Ulug‘ avroqi chun bir-bir yopildi,
Dilovarlig‘ silohi mayli qildi kabi.*

Shuningdek, ulug‘ shoir o‘z asarlarida badantarbiyani *ilmi badan – badan ilmi* yoki *ko‘ngil tarbiyasi* deb atagan, go‘y (chavgon o‘yinida o‘ynaladigan to‘p), *silahsho‘rlik* (harbiy mashqlar) atamalarini qo‘llagan, shatranj, tiyrandoz, chavandozlik, nayzabozlik, chavgon, qovoq, kurash, qilichbozlik kabi qadimiy xalq o‘yinlarini o‘zining lirik va epik asarlarida tasvirlagan¹⁹. Ayni paytda, inson ma‘naviyati doirasida badan ilmiga va sportchining axloqiga ham ahamiyat berilishi lozimligiga e‘tiborni qaratgan.

Navoiyning lirik she‘rlarida go‘y va chavgon (ot to‘pi) o‘yini, ular bilan bog‘liq atamalar ko‘p tilga olinadi: *Ot chopib maydonda, chavgon o‘ynadi, Xalq boshin go‘y etib jon o‘ynadi* (“Lison ut-tayr”); *chavgon so‘zidan chavgonchi* shaxs oti yasagan: *Mansabda andoqki, qo‘rchi va suvchi va xizonachi va kerak – yarog‘chi va chavgonchi... yo‘sunlug‘ ko‘ptur* (“Muhokamat ul-lug‘atayn”).²⁰

Shuningdek, shoir asarlarida *kamon, kamongarlik, kamonkash, kamonxona* hamda kurashga tushuvchi pahlavonning laqabi sifatida *go‘shdigir* so‘zi qo‘llangan: *Mavlono Boqiy... kamongarlikka mashhur* (“Majolis un-nafois”). *Muhammad Pahlavon go‘shdigirkim, go‘shdi fani bovujudi ulkim, aning andoq haq va mulkidur* (“Majolis un-nafois”).

Navoiy zamonida shaxmat *shatranj* deyilgan. Shoir asarlari matnida uning

¹⁷ Хайитметов А. От чопиб, майдонда чавгон ўйнади. Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. Ўттиз жилдик. Иккинчи жилд. – Тошкент: “Тамaddon”, 2021. – Б.67-71; Қаюмов А.Р. От ва туя билан боғлиқ анъанавий этноспорт ўйинлари ва унинг этно ва этнотуризмни ривожлантиришдаги ўрни. “Бойсун баҳори” халқаро фестивали: туризм салоҳияти. Илмий-амалий анжуман. – Тошкент: “Yoch avlod matbaa”, 2022, – Б.86-91; Носир Муҳаммад. Навоий ва шатранж. “Ёшлик” журнали, 2016 йил, 1-сон, [10.07.2019. Ziyouz.uz](http://10.07.2019.Ziyouz.uz).

¹⁸ Хайитметов А. Юқоридаги мақола.

¹⁹ Қаюмов А.Р. Юқоридаги мақола, – Б.8.

²⁰ Замоनावий чавгон ўйини ҳозирги пайтда кўплаб давлатларда «поло» деб аталади. Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам замоनावий “човгон” – “поло” ўйини кириб келган ва ҳаттоки, “Поло” федерацияси ҳам фаолият юритмокда. (Қаранг: Қаюмов А.Р. Юқоридаги мақола, – Б.89-90).

shatranj, shatranj oti (shaxmat donalaridan ot, asp), *shatranj xonasi, shatranji kabir va sag'ir* (katta va kichik shatranj o'yinlari), *shatranji hozirona va g'oyibona* (raqib bilan yuzma-yuz yoki uzoq masofada turib shaxmat o'ynash) singari so'z va birikmalar qo'llanilgan. *Mavlono Fazlulloh... Shatranji hozirona va g'oyibona, balki sag'ir va kabirni bilur* ("Majolis un-nafois).

A.Hayitmetov quyidagilarni qayd etgan edi: "Navoiy asarlarida eng ko'p eslangan sport o'yinlaridan biri shatranjdir. To'g'rilik haqida gap borganda, ko'p vaqt shoir shatranjdagi ruhni, egrilik to'g'risida gap borganda esa farzinni eslaydi... Navoiyning o'zi ham shatranjga juda qiziqqan va yaxshi o'ynagan. Navoiy jamiyatda tartib tinchlik, totuvlik, adolat o'rnatish, ayni vaqtda insoniyatning aqliy va jismoniy jihatdan chiniqishi uchun ham kurash olib borgan".²¹

Shoirning "G'aroyib us-sig'ar" asarida quyidagi misralarni uchratamiz:

Shah yonin ***farzin*** kibi kajlar maqom etmish, ne tong,
Rostravlar arsadin gar tutsalar ***ruxdek*** qiroq.

Ya'ni: shohning yonida farzin kabi egri yo'lga yuruvchilar turarkan, Ruxdek to'g'ri yuruvchilar hamisha taxtaning chetida qolsa ajab emas. Shatranj qoidasiga ko'ra farzin shoh yonida (o'sha davrda u faqat egri chiziq bo'ylab yura olgan), faqat to'g'riga yura oladigan rux esa taxtaning eng chekkasiga joylashtiriladi. Shaxmat donalarilarning bunday joylashuvini hayotga qiyoslagan shoir egrilarni yuksaklikka ko'targan va oqillarni, to'g'rilarni chetga surgan jamiyatni fosh etadi²².

Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlari matnida qo'llanilgan va yuksak badiiy obrazlar yaratishda ishtirok etgan jismoniy madaniyat va sportga oid so'z va iboralar lingvomadaniy merosimiz ildizlari naqadar chuqur ketganlagidan dalolat berib turadi.

"Zamonaviy badiiy adabiyot matnlarida sport leksemalari" deb nomlangan **to'rtinchi bo'limda** badiiy matnlarda uchraydigan sportga oid leksemalarning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor qaratilgan va tahlilda O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asari asos qilib olingan.

Asar o'zbek qishloqlarida yashaydigan oddiy, mard va oriyatli insonlar hayotini aks ettirishga bag'ishlanganligi, voqelarning g'oyatda tabiiy va xalqona ruhda aks ettirilganligi bilan xarakterlanadi.

Uning bosh qahramoni Bo'ri polvon nihoyatda samimiy va halol odam, kurash tushishi bilan katta hududda mashhur bo'lgan atoqli polvon. Ana shu betakror obrazning badiiy qiyofasi yaratilishi jarayonida sportning kurash turi bilan bog'liq ko'plab atamalardan foydalanilgan, o'zbek xalq o'yinlari tilga olingan. Bu atamalar har biri xalqona ruh va lingvomadaniy mazmunga egaligi bilan asar tilida alohida ajralib turadi.

Asarda bevosita yoki bilvosita sportga aloqador bo'lgan **yong'oq, oshiq, shumshak, quloqcho'zma, do'l, g'irboydi, chillak, zuvillatar, gir, yashinmachoq, oqsuyak, moyak urishtirish** o'yinlarning nomlari keltirilgan: ***Bolalar to'da-to'da bo'lib, yong'oq, oshiq, shumshak, quloqcho'zma o'ynadi. Do'l, g'irboydi, chillak, zuvillatar o'ynadi..; Bolalar har tarafga sochilib yashirindi. Girda qolgani***

²¹ Хайитметов А. Юкоридаги мақола, – Б.70-71.

²² Носир Муҳаммад. Навоий ва шатранж. "Ёшлик" журнали, 2016 йил, 1-сон [10.07.2019. Ziyouz.uz](https://ziyouz.uz).

ularni izladi. **Girdanda** ogoh bo'ldi. Kimda-kim uning ko'zini shamg'alat qilib, epchillik bilan **girga** chopib kirsas, shu g'olib sanaladi; endi qo'lga tushgan bola girda qoldi. Bolalarni izladi. Bu, **yashinmachoq** o'yini bo'ldi kabi.

Xalq o'yinlaridan yana biri ko'pkari tilga olingan: – Odamlar, Oqjarda **ko'pkari** bo'ladi! – dedi Nabi oqsoqol. – Ana, uloqni olib ketdi! Xohlaganlar borsin! Bu sport turining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan piyoda ko'pkari, piyoda poyga singari turlari esga olinadi: eslaringda bo'lsin, kechasi olish bo'ladi, ertaga yana **ko'pkari! Piyoda ko'pkarisida bor! ertaga piyoda poygayam bo'ladi, ha!**

Asar matnidagi sportga oid atamalarning asosiy qismi uning kurash turiga tegishliligidan “kurash” so'zi 26 marta qo'llangan. Ammo so'z bir qadar rasmiy ottenkaga ega bo'lganligidan uning o'rnida xalq ifoda uslubiga nihoyatda yaqin bo'lgan “olish” so'zidan samarali foydalanilgan. U 125 marta qo'llangan. Mana bu *Bo'ri polvon o'shanda umrida birinchi bor farg'onacha kurash ko'rdi. Vodiyliliklar olishni kurash, dedi* gaplarida “kurash”ning rasmiyligi, “olish”ning xalqchilligiga ishora bor.

Kurash tushadigan kishi xalq orasida ulug'lanib, “polvon” deyilgan. Sportning boshqa turlari ishtirokchilariga nisbatan keyin qo'llanilgan. Asar matnida uning 948 marta qo'llanilganligi nihoyatda ommalashganidan, xalqning qalbida ijobiy qahramon sifatida chuqur joy olganidan dalolat beradi: **Bo'ri polvon qo'llarini ko'tarib, davrani aylanib chopdi.**

Bo'ri polvon hammaga “polvon” deb murojaat qilishni xush ko'radi: *Bo'ri polvon atayin shu bolani etaklab keldi. – Otingiz nimaydi, polvon? – dedi. – Shukuy! – e, yashang, Shukur polvon! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo'lsa o'rtaga chiqsin! deganida esa yosh bolaga nisbatan erkalash ottenkasini bergan so'z matnda stilistik jihatdan samarali qo'llangan.*

Darhaqiqat, “kurash” va “olish” so'zlari Negaki, *Bo'ri polvon faqat zafar qozonish uchun olishadi! Faqat, faqat g'alaba uchun kurashilsa, g'alabaga etish juda-juda mushkul bo'ladi!* gaplarida o'zaro sinonim bo'lsa-da, **Or-nomus uchun kurash** bolalikdan boshlanadi! Maksim polvon sambo **kurashi** bo'yicha sport ustasi ekani chin bo'ldi singari holatlarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi.

Asar Tog'ay Murodning yuksak badiiy mahorati va betakror ifoda uslubini ko'rsata olgani bilan birgalikda kurash jarayonidagi holatlar, kurashish usullari anglatadigan olishmoq, halol olishmoq, yotibotar, cho'nqayma, cho'nqayma usulini qo'llamoq, cho'nqaymaga olmoq, chil, chil bermoq, chil urmoq, ichidan chil solmoq, qo'l chil, tuya chil, it chil, it yiqilish, o'ngiga olmoq, o'ngiga kelmoq, orqaga qayirib urmoq, elkasidan oshirib urmoq, yag'ringa olmoq, ko'kragi bilan tushmoq, chalqayramon tashlamoq, ko'kragini berib olishmoq, qo'shqo'llab ushlamoq, yonbosh, yonbosh yiqilmoq, yonboshga olmoq, oyog'ini to'g'onoq qilib to'shamoq, sermab yubormoq, to'lg'ab urmoq, o'ngi yag'ringa olmoq, chap yag'riga olmoq; “yiqilmoq” ma'nosini beradigan oyog'i osmondan kelmoq, yelkasi yer ko'rmoq, osmon to'la yulduz bo'lmoq, yelkasi yerga tegmoq; “yiqitmoq” ni anglatadigan yag'rinidan oshirib tashlamoq; kurashish jarayonini baholaydigan halol, g'irrom, bekor; kurashdagi an'analarni eslatadigan tovoq qo'yish, tovoq tashlash, tovoq ko'tarish; g'olib kurashchiga beriladigan mukofot va

ragʻbatlantirishni anglatadigan *zot*, *sovrin*, kurash tushadigan maydon maʼnosini beradigan *davra*, *qur* (*qir*), shuningdek, *sport*, *sportchi*, *sport masteri*, *sport ustasi*, *master sport*, *sambo*, *seksiya* singari zamonaviy terminlardan foydalanilganligi bilan “sport” semantik maydoni tahlili uchun noyob manba vazifasini oʻtaydi.

Matndagi *Ismoil polvon yulduz sanadi!*.. Regardan *Oʻtan polvon degan chiqib*, *Surxondaryoning suyangan togʻlarigacha terib tashladi!* gaplarida “yiqilmoq”ning *yulduz sanamoq*, “yiqitmoq”ning *terib tashlamoq* tarzida ifodalanishi asar lingvopoetikasi tizimidagi nodir namunalardir.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbek tili milliy korpusida sportga oid funktsional-stilistik farqlanuvchi leksemalar bazasini yaratish”** deb nomlangan **toʻrtinchi bobi** toʻrt boʻlimdan iborat boʻlib, unda korpus turlari, xususiyatlari va sportga oid leksemalar bazasini yaratish metodologiyasi hamda razmetkalash usullari; sportga oid matnlarini milliy korpusda aks ettirishning ilmiy-amaliy ahamiyati va teglashning lingvistik taʼminoti; “sport” semantik maydonidagi leksemalarning leksikografik, grammatik tahlili va morfologik razmetkalash masalasi; korpusda sportga oid matnlarini semantik annotatsiyalash masalasi koʻrib chiqilgan.

“Korpus turlari, xususiyatlari va sportga oid leksemalar bazasini yaratish metodologiyasi hamda razmetkalash usullari” deb nomlangan **birinchi boʻlimda** tabiiy tilni qayta ishlash (NLP/TTL) texnologiyalari taraqqiyoti zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda til korpusining ahamiyatini yanada oshirishi taʼkidlangan. Korpuslar tilning real qoʻllanishiga asoslangan empirik manba boʻlib, ular leksik-semantik, grammatik hamda funktsional-stilistik xususiyatlarni obyektiv oʻrganish imkonini beradi. Ushbu boʻlimda oʻzbek tili milliy korpusi tarkibida “sport” semantik maydoni uchun ixtisoslashgan korpus yaratishning nazariy asoslari, maʼlumot manbalari, korpus shakllantirish talablari va semantik-funktsional teglash metodlari yoritilgan.

Til korpusi – bu elektron formatda berilgan, maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan katta hajmdagi tabiiy til materiallarining toʻplami boʻlib, NLP tizimlarida mashinalarni oʻqitish, statistik tahlil, matn tasnifi, tarjima modellarini yaratish kabi jarayonlarning asosi hisoblanadi. Korpuslar gazeta, badiiy matnlar, ilmiy-texnik hujjatlar, radio va televidenie nutqi, onlayn nashrlar kabi manbalardan tarkib topishi mumkin. Ular til birliklari qoʻllanishini, ayniqsa maʼlum bir sohadagi til vositalarining (masalan, *sport* diskursi) funktsional-stilistik farqlanishini tahlil qilish imkonini beradi. Korpusga qoʻyiladigan asosiy talablar – hajmning etarlicligi, matnlarning tabiiyligi, reprezentativligi, metamaʼlumotlarning toʻliqligi va zamonaviyligi. “Sport” korpusi uchun bu talablar matnlarning turli uslubiy qatlamlardan olinishi, yangi sport terminlari (kiber sport, VAR, reyting tizimlari)ning aks ettirilishi hamda barcha asosiy sport yoʻnalishlari boʻyicha janr va mavzu xilma-xilligini taʼminlash orqali amalga oshiriladi. Mavzuviy tarkib sport inshootlari, sport turlari, musobaqa jarayoni, sportchi faoliyati, mashqlar, anjomlar kabi guruhlariga boʻlinadi. Har bir kategoriya oʻz funktsional-uslubiy xususiyatlariga ega boʻlib, korpusning mavzuviy reprezentativligini taʼminlaydi.

Ixtisoslashgan “Sport” korpusini yaratish metodologiyasi bir necha bosqichdan iborat. I bosqichda matn manbalari tanlanadi: publitsistik matnlar (sport sharhlari, reportajlar), ilmiy-texnik manbalar (jismoniy tarbiya nazariyasi

bo'yicha adabiyotlar), rasmiy hujjatlar (reglament, protokol, ustavlar) va badiiy asarlar. Ushbu matnlar yig'ilib, yagona elektron formatga o'tkaziladi va reprezentativ tarkib shakllantiriladi. II bosqich – lingvistik qayta ishlash. Matnlar tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfologik tahlil (so'z turkumi va grammatik xususiyatlarni aniqlash) jarayonlaridan o'tkaziladi. Bu universal razmetka korpusning keyingi annotatsiya bosqichlari uchun asos yaratadi. III bosqichda funktsional-uslubiy va semantik teglash amalga oshiriladi. Ushbu maxsus razmetka "Sport" korpusini boshqa umumiy korpuslardan farqlovchi asosiy bosqichdir. Domen razmetkasi matnning sportga oidligini belgilaydi. Janr-uslub jihatdan teglash publitsistik, ilmiy, rasmiy yoki so'zlashuv uslubini ajratadi. Leksik-semantik teglash esa sportga oid leksemalarni tor tematik guruhlariga – inshoot, harakat, anjom, musobaqa, sportchi, mashq kabi kategoriyalarga bo'ladi. ekspressivlik yoki jargon xususiyatiga ega birliklar alohida belgilab boriladi. XML yoki TEI standartidagi teglash tizimi qo'llanilib, har bir leksemaga uslubiy va semantik qiymatlar biriktiriladi.

Keyingi bosqichda teglangan matnlardan sportga oid barcha lemmalar ajratib olinadi va ular asosida maxsus leksik baza shakllantiriladi. Har bir leksema uchun quyidagi ma'lumotlar belgilab boriladi: lemma, so'z turkumi, semantik guruh, funktsional-uslubiy teg, chastota ko'rsatkichi, tipik kollokatsiyalar va matndan olingan kontekstual misol. Kollokatsiyalarni aniqlash sport tilining o'ziga xos uslubiy jihatlarni ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega, chunki ko'plab sport iboralari aynan birikmalar shaklida yuzaga chiqadi (*darvozaga zarba berish, tezkor qarshi hujum*).

Bazaning yakuniy shakllanishida ekspert baholash amalga oshiriladi. Tilshunos mutaxassislar tomonidan tasodifiy tanlangan leksemalar to'plami tahlil qilinib, funktsional-uslubiy teglashning aniqligi tekshiriladi hamda zarur hollarda tuzatishlar kiritiladi. Yaratilgan baza NLPning sport matnlarini avtomatik tasniflash, sport sharhlaridagi jargon birliklarini aniqlash, sport terminologiyasining uslubiy tarqalishini tadqiq etish, mashina tarjimasida sport diskursiga xos birikmalarni to'g'ri talqin qilish kabi amaliy yondashuvlar uchun xizmat qiladi. Statistik tahlillar orqali so'z chastotasi, kollokatsiyalar va uslubiy differentsiatsiya namoyon bo'lishi aniqlanadi. Sportga oid matnlarni teglashda uchraydigan asosiy muammo – qidiruv natijalarining ortiqcha hajmda bo'lishi. Bu holat klasterlash va statistik saralash orqali bartaraf etiladi: so'zlar semantik yaqinligi, uslubiy o'xshashligi yoki grammatik belgilari asosida guruhlariga birlashtiriladi; xarakterli kollokatsiyalar ajratib, foydalanuvchi uchun ahamiyatli misollar taqdim etiladi.

Demak, o'zbek tili milliy korpusi uchun "sport" semantik maydoni doirasida ixtisoslashgan leksemalar bazasini yaratish jarayoni matnlarni yig'ish, ularni lingvistik qayta ishlash, funktsional-uslubiy va semantik razmetkalash hamda ekspert baholash kabi kompleks bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu baza sport diskursining leksik va stilistik xususiyatlarini chuqur o'rganish, shuningdek, kelgusida TTL ilovalari uchun samarali lingvistik resurs yaratish imkonini beradi.

"Sportga oid matnlarini Milliy korpusda aks ettirishning ilmiy-amaliy ahamiyati va teglash, tematik modellashtirishning lingvistik ta'minoti" deb

nomlangan **ikkinchi bo'limda** sportga oid matnlarini milliy korpusda aks ettirishning ilmiy-amaliy ahamiyati va teglashning lingvistik ta'minoti tavsiflangan. Hozirgi davrda milliy tilni tadqiq etish jarayonlarida korpus lingvistikasi muhim o'rin egallab, til birliklarining funktsional qo'llanishini keng ko'lamda o'rganish imkonini yaratmoqda. "Sport" semantik maydoniga oid leksemalarni milliy korpusda aks ettirish tilshunoslikning amaliy va nazariy yo'nalishlari uchun alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklarning korpusga kiritilishi sport terminlarining tizimli ro'yxatga olinishi va ular qo'llanishining real nutqiy vaziyatlarda qay darajada faol ekanligini aniqlash imkonini beradi. Sport leksikasining korpusda berilishi bir nechta amaliy afzalliklarni yaratadi. Birinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida sportga oid til birliklarining elektron shaklda berilishi tadqiqotchi, jurnalist, tarjimon, o'qituvchi va boshqa mutaxassislariga ma'lumotni qisqa vaqt ichida izlash va tahlil qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quv jarayonlarida korpus materiallaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi, chunki real nutqiy qo'llanishga asoslangan misollar malakali lingvistik tahlil uchun muhim asos yaratadi.

Sport semantik maydonidagi leksemalar turli mikromaydonlarga ajratilib, ular ichki tizimiga ko'ra kategoriyaga ajratiladi. Bu mikromaydonlar shaxs nomlari (*sportchi, murabbiy, hakam*), narsa-buyumlar (*raketka, shtanga, shlem*), joy nomlari (*sport maktabi, sport majmuasi, federatsiya*), sportga oid ommaviy axborot vositalari (Sport TV, FutbolTV Tribuna.uz) kabi yirik guruhlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tasnif sport terminologiyasining semantik tuzilishini aniqlash, ularning funktsional o'rni va qo'llanish chastotasini baholashga xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlari, bilingvizm va interferentsiya hodisalari natijasida tillarning ichki tizimiga tashqi ta'sir kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon sport leksikasida ham namoyon bo'lib, ba'zi birliklarning sofliigi va milliy o'ziga xosligini yo'qotishi ehtimolini tug'diradi. Shu bois sport terminlarini yig'ish, ularning korpusdagi qo'llanishini qayd etish, ayniqsa, milliy-madaniy qimmatga ega birliklarni saqlab qolish uchun muhim. elektron lug'at va korpuslar paydo bo'lgani tilshunoslikda tezkorlik va aniqlik tamoyillarini kuchaytirgan bo'lsa, sportga oid birliklarning raqamli muhitda saqlanishi ularning barqaror ishlatilishini ta'minlaydi.

Dunyo tillarining izohli lug'atlarida sport terminlari mavjud bo'lsa-da, korpuslarda ularning to'liq va tizimli berilmaganligi kuzatiladi. Bu holat sport leksikasining saralanmaganligi, semantik jihatdan aniqlanmaganligi va funktsional farqlanmaganligi bilan izohlanadi. Sport leksikasi quyidagi asosiy semantik guruhlarga ajratilganda uning funktsional va uslubiy tahlili sezilarli darajada osonlashadi: sport turi va o'yini, sport harakati va usuli, musobaqa bosqichlari, mashqlar majmui, inshoot va musobaqa joylari, anjomlar va jihozlar, sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

Dastlabgi bosqichlarda sport matnlarini qo'lda teglash ko'p vaqt talab qilgan bo'lsa, bugungi kunda yirik korpuslarni avtomatik tahlil qilish imkonlari kengaydi.

Sport matnlarining tematik modellashirilishi – nazoratsiz mashinali o'rganish usullaridan biri bo'lib, matnlardan mavzularni avtomatik aniqlashga imkon yaratadi. LDA (Latent Dirichlet Allocation), LSI, HDP, NMF kabi usullar orasida,

ayniqsa, LDA sport terminologiyasini mavzular bo'yicha guruhlashda samarali hisoblanadi. Tematik modellarda har bir matn ma'lum mavzular kombinatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi, so'zlarning statistik tarqalishi esa mavzu klasterlarini belgilaydi. Bu sport matnlarining strukturalangan semantik xaritasini yaratish imkonini beradi.

PCA (Principal Component Analysis) usuli o'zgaruvchilar sonini kamaytirgan holda sport leksikasining o'zaro bog'liqligini vizualizatsiya qilishga xizmat qiladi. Klastrlash usullari esa sport terminlarining o'zaro yaqinligini avtomatik aniqlab, ularni kichik semantik guruhlariga ajratadi.

NMF (Non-Negative Matrix Factorization) va LDA kabi modellar sport matnlaridan yashirin mavzularni aniqlab, korpusdagi leksik birliklarning tarqalishi, vazni va mavzu bo'yicha nisbatini belgilashga yordam beradi. LDA, ayniqsa, sport matnlarida keng qo'llanadigan ehtimollik modellaridan biri bo'lib, har bir matnning mavzu miqdorini va har bir mavzuning tipik so'zlarini aniq ko'rsatadi.

Sportga oid matnlarning milliy korpusda aks ettirilishi va ularni lingvistik teglashning takomillashgan tizimi o'zbek tilining sport diskursidagi leksik imkoniyatlarini chuqur o'rganish, shuningdek, zamonaviy NLP modellarini yaratish uchun zarur bo'lgan mustahkam ilmiy-amaliy bazani shakllantiradi.

“Sport” semantik maydonidagi leksemalarning grammatik tahlili va morfologik razmetkalash” deb nomlangan **uchinchi bo'limda** “sport” semantik maydonidagi leksemalarning leksikografik, grammatik tahlili va morfologik razmetkalash masalasi tahlil qilingan. Til birliklarining semantik maydonlar bo'yicha izchil o'rganilishi ularning ichki tuzilishi, leksik-grammatik xususiyatlari hamda nutq jarayonidagi qo'llanish imkoniyatlarini chuqur yoritadi. “Sport” konseptual sohasi ham mazkur yondashuvning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, undagi leksemalar semantik murakkablik, grammatik qatlamdorlik va funktsional xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu sohada qo'llaniladigan ot, fe'l, sifat va boshqa turkumdagi birliklar sport faoliyatining harakat, jarayon, natija, ishtirokchi va predmet kabi komponentlarini ifodalaydi. Shuning uchun bu leksemalarning grammatik shakllanishi, morfologik xususiyatlari hamda ularni avtomatik qayta ishlash uchun teglash mexanizmini ishlab chiqish sport semantik maydonining lingvistik tuzilishini to'liq tasvirlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda “sport” semantik maydoniga mansub 568 ta leksema etti mikromaydon bo'yicha tasniflandi: sport turlari va o'yinlari (150 so'z), sport tashkilotlari (37), musobaqa va bosqichlar (27), mashqlar va sportchining harakatlari (77), anjomlar va uskunalar (75), inshoot va musobaqa joylari (33), sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar (169). Ushbu taqsimot sport leksikasining semantik tuzilishini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mikromaydonlarning miqdoriy nisbatlari aniqlangan 568 leksemaning grammatik tahlili shuni ko'rsatdiki, ulardan 392 tasi (69%) otlar, 132 tasi (23,2%) sifatlar, 44 tasi (7,7%) fe'llardir. Yirik guruh sifatida otlarning ustunligi sport sohasidagi predmet, joy, ishtirokchi, jarayon va mavhum tushuncha nomlarining ko'pligi bilan izohlanadi.

Ot turkumidagi atamalar mazmuniga ko'ra uch asosiy guruhga ajratildi:

1. Shaxs faoliyati bilan bog'liq nomlar: *darvozabon, o'yinchi, raqib,*

sovrindor;

2. Predmet nomlari: *belbog*‘, *darvoza*, *halqa*, *to‘p*;

3. Jarayon va mavhum nomlar: *jang*, *bosqich*, *hisob*, *g‘alaba*, *marra*.

Ko‘plab otlar terminlashuv jarayonida sportga oid maxsus ma‘noni kasb etgan. Masalan: *bosqich* – sport musobaqalaridagi tur (1-bosqich, yakuniy bosqich); *vazn* – boks va atletikadagi kategorial birlik; *darvoza* – futbol, xokkey o‘yinlaridagi himoya qismi; *maydon* – sport jarayoni kechadigan joy; *g‘alaba* – sport natijasi sifatidagi mavhum tushuncha. Ba‘zi leksemalar izohli lug‘atlarda aytilgan ma‘nosidan farqli, keyinchalik sport terminologiyasida faol qo‘llanila boshlagan (*gilam*, *davra*, *halol*). Shuningdek, *ot*, *piyoda*, *sipoh* kabi so‘zlar shaxmat o‘yinidagi maxsus terminlar sifatida ishlatiladi.

Fe‘l shaklidagi terminlar sport jarayonining dinamik mazmunini ifodalaydi. Ular asosan harakat nomi shaklida (*o‘tish*, *sakrash*, *suzish*, *uloqtirish*, *engish*, *urish*, *uzatish*) qo‘llanadi va matnda jarayonning o‘zini anglatuvchi funktsiya bajaradi. Fe‘llarning terminlashuvi jarayonida ular semantik jihatdan tor ma‘no kasb etadi: *granata uloqtirish*, *suzish turi*, *to‘p uzatish*, *belgi urish* kabi.

Fe‘l leksemalarini teglashda ularning grammatik kategoriyalari inobatga olinadi: mustaqil, yordamchi, ko‘makchi va to‘liqsiz fe‘llar farqlanadi; harakat, nutq, holat, natijali faoliyat, tafakkur va munosabat fe‘llari kabi leksik-semantik guruhlar ajratiladi.

Sifatlar sport semantik maydonida predmetning xususiyati yoki jarayonning belgisini ifodalaydi. Sifatlar asosan ikki guruhga bo‘linadi: asliy sifatlar (*katta*, *tez*, *baland*) va nisbiy sifatlar (*musobaqaviy*, *rekordli*, *texnik*, *jamoaviy*). Sport matnlarida ularning terminlashuvi ko‘proq nisbiy sifatlarda kuzatiladi: *bukma narvon*, *kanatli osma ko‘tarma*, *yonlama zarba*, *quvlashtirma poyga* kabi.

Morfologik razmetkalash modeli sport leksikasining avtomatik qayta ishlanishini ta‘minlash uchun ishlab chiqildi. Modelda har bir so‘zning so‘z turkumi (*ot*, *sifat*, *fe‘l*), leksik-grammatik guruhi, semantik roli va grammatik kategoriyalari maxsus teglar orqali belgilab boriladi. Otlar uchun [*ot*], sifatlar uchun [*sif.*], fe‘llar uchun [*f.*] asosiy teg bo‘lib, ularga qo‘shimcha ravishda mantiqiy guruhlarni belgilovchi teglar birlashtiriladi: otlarda: [*atoqli ot*], [*turdosh ot*], [*shaxs nomi*], [*mavhum ot*], [*o‘rin-joy nomi*], [*faoliyat-jarayon nomi*] va b.; sifatlarda: [*as. s.*], [*nis. s.*]; fe‘llarda: [*must. f.*], [*nomust. f.*], [*har. f.*], [*nutq f.*], [*nat. f.*], [*holat f.*].

